

**DARS JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.**

**Xolmuradov Komil Ruzimuradovich**  
*Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi  
 89-umumi o'rta ta'lim maktabining  
 boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada amaliy darslarda interfaol metodlar asosida darslar o'tish va klaster usulidan qanday darsdan tashqari foydalanish haqida tavsiya keltirilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati hamda darslarda qo'llaniladigan ba'zi interfaol metodlar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** interfaol metod, o'qituvchi, usul, klaster, klaster yondashuvi, yo'l xaritasi.

Bugungi kun o'qituvchisidan o'ziga ishonib topshirilgan ma'suliyatli vazifani sidqidildan ado etish, kasbiy faoliyatida zamon bilan hamqadam faoliyat olib borish talab etitladi. Avvalo, har bir o'qituvchi o'z kasbiga mehr va ma'suliyat bilan yondoshib, o'tadigan har bir soat darsini muqaddas bilib yondoshib, o'tadigan har bir soat darsni muqaddas bilib bilib, unga zarracha xiyonat qilib bo'lmasligini his etish lozim. Buning uchun kundalik darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi, eng zamонавиу texnologiyalarni o'z faoliyatida qo'llay turib, dars sifati va samaradorligini ta'minlay bilishi lozimdir.

Uzliksiz ta'limning qay bo'g'ini rivojlanmasin boshqa bo'g'lnarga shuningdek, jamiyat, davlat rivojiiga ta'sir etish tabiiy ekanligini yurtimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov muallifligida ishlab chiqilgan. Bevosita rahbarligida hayotga tatbiq qilingan va dunyo mutaxasislari e'tiboriga sazovor bo'lgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining muvaffaqiyatli natijasida hayotning o'zi ko'rsatdi.

Umumiy o'rta ta'limda, oliy o'quv yurtlarida bugungi dolzarb vazifalardan biri bu, darslarda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg'or pedagogik texnologiyalardan unumli va o'z o'rnida foydalanishdir.

Hozirgi kunda darslarni tashkil etishning zamонавиу usullaridan biri interfaol metodlardan foydalanishiga keng ahamiyat qaratilmoqda. Interfaol metodlar yordamida har bir darsda o'quvchilarni faol qilish jarayoniga undash, mustaqil ravishda aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratish mumkin.

Zamонавиу pedagogik interfaol metodlar asosida o'tilgan darslarda o'qituvchi va o'quvchilar fanlararo bog'lanishni, mavzularning mazmun mohiyatini chuqr tahlil etadi. Darsda muamoli vaziyatlar yaratiladi. Ba'zan o'qituvchi, ba'zan esa

o‘quvchilarning o‘zлari muammoni o‘rtaga tashlaydilar va fikr yuritib, yechimni topishga intiladilar.

Ta’limda interfaol metod – bu o‘quvchi bilan o‘qituvchi o‘rtasida ta’limni o‘zlashtirish munosabatlarini kuchaytirish, faollashtirish demakdir. Mazkur metodlar hamkorlikda ishslash vositasida dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ular o‘quvchilarni mustakil fikrlashga undaydi Interfaol degani bu - berilgan mavzuni o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida o‘zaro hamkorlik asosida dars samaradorligini oshirish, mustaqil fikr berish ko‘nikmasini shakllantirish, fikr-mulohaza, bahs orqali o‘rganish demakdir. Har bir o‘quvchi qo‘yilgan maqsadga mustaqil o‘zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, yozadi, so‘zga chiqadi, dalil va asoslar orqali masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa qatnashchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi axborotni o‘zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondasha oladi. O‘qituvchi faqat fasilitator (yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi) vazifasini bajaradi.

Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iboratdir. Barcha fan o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog bilish va emotsiyal sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomланади. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatları rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Unga ko‘ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo‘ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe’llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darjasini bo‘lib, bunda o‘quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo‘lganda esa, o‘quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma’lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noa'nanaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, birnechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalahtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Shu mashg'ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning an'anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko'rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin.

**Interfaol metodlarni mashg'ulot maqsadiga muvofiq tanlash**

Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko'rildi. Interfaol mashg'ulotda ishtirop etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirop etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalarini va boshqalardan iborat.

Mashg'ulotda vaqtadan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an'anaviy

ta'lim usullari orasida o‘ziga xos farqlar mavjud bo‘lib, har bir o‘qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o‘tkazish usullarini tanlashda to‘g‘ri hisobga olishi zarur.

Bunda yangi bilimlarni berish, ko‘nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo‘llash mashg‘ulotlarida hamda o‘quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo‘yicha mashg‘ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo‘lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to‘g‘ri tanlash nazarda tutiladi.

To‘g‘ri tanlangan metodlarni qo‘llash mashg‘ulotning qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Interfaol metodlar konstruktivizm nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu metodlardan amalda foydalanishda konstruktivizmning quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

O‘quvchi o‘zi o‘rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o‘rgata olmaydi;

O‘qituvchi o‘quvchilarga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi;

Bilim borliqdan ko‘chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi.

Ma’lumki, interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o‘tib, yaxshi natija bergen. Keng qo‘llaniladigan usullar: “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom yettir”, “Taqdimot”, “Blits-so’rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o‘tilgan mavzuni so‘rash qismida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “Tjadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” metodlarini qo‘llash dars samaradorligini ta’minlab, o‘quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Quyida ushbu metodlarning ayrimlari haqida kengroq ma’lumot berib o‘tiladi.

“Qalin va ingichka savollar” metodi. Ta’lim jarayonida savollardan foydalanishda ularni ikki turga: oddiy va murakkab savollarga ajratish qabul qilingan. Bunda oddiy savollar “ha” yoki “yo‘q” yoxud boshqa birorta so‘zlar bilan javob berish mumkin bo‘lgan savollardan iborat. Ularni boshqachasiga qisqa yoki ixcham obrazli qilib esa, ingichka savollar deb ham atash mumkin. Murakkab savollar ularga bir nechta so‘zlar, iboralar, gaplar yoki tegishlichcha bayon qilish, tushuntirish bilan javob berish lozim bo‘lgan savollardan iborat. Ularni boshqachasiga to‘liq yoki yoyiq obrazli qilib esa, qalin savollar deb atash ham mumkin. Shunga ko‘ra ushbu «Qalin» va

«ingichka» savollar metodining nomini boshqachasiga «To‘liq» va «qisqa» yoki «Yoyiq» va «ixcham» savollar metodi deb ham atash mumkin. Bu metoddan o‘quvchitalabalarining o‘zlashtirishini tezkor nazorat qilish hamda faolliklarini oshirish maqsadlarida mashg‘ulotning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Buning uchun o‘qituvchi darsning mavzusiga tegishli «Qalin» va «ingichka» savollar jadvalini oldindan tuzib olishi kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o‘quvchilarining muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, o‘quvchilar orasida emostional aloqalar o‘rnatalishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, amaliyotdan ma’lum bo‘lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash o‘quvchilarining asabiy zo‘riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.Yo‘ldoshev, R.Xusainova, U.Bobojonova. Ta’limning interfaol metodlari(metodik qo‘llanma). Urganch-2011.
2. O.U.Avlayev, S.N. Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o‘quvuslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017
3. Sobirova M.R. O‘zbek tili darslarida interfaol usullardan foydalanish Молодой ученый. – 2020. - № 14 (304).
4. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz).